

VATANPARVARLIK TUYG'USI VA IJTIMOIY TARAQQIYOT: FUQAROLIK JAMIyatINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Turdiyev Jamshid Rashidovich,
Toshkent menejment va iqtisodiyot
instituti katta o'qituvchisi

Shoaslonova Ro'yoxon Jamshid qizi
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada vatanparvarlik tushunchasining fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Vatanparvarlik tuyg'usi insонning jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'shish kabi omillar bilan chambarchas bog'liq. Maqolada fuqarolik jamiyatining rivojlanishida vatanparvarlik g'oyalarining roli, yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida uning ta'siri hamda milliy birdamlikni mustahkamlash jarayonidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, maqolada tarixiy va zamonaliv manbalar asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, amaliy takliflar ilgari suriladi.

Mazkur tadqiqot natijalari vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan ta'lim va tarbiya jarayonlarini takomillashtirish, ijtimoiy institutlarning rolini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, vatanparvarlik, vatan tuyg'usi, inson, davlat, jamiyat, demokratik jarayonlar, "Davlat-inson uchun", tarbiya, fuqarolik jamiyat, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy, manfaat, Fuqarolik jamiyat institutlari, referendum,adolat, xalq, fidoyilik.

Abstract. This article analyzes the role and significance of the concept of patriotism in the formation of civil society. The feeling of patriotism is closely connected with such factors as an individual's awareness of their responsibility to society, the preservation of national values, and contributing to social progress. The article highlights the role of patriotic ideas in the development of civil society, their influence on the moral education of the younger generation, and their importance in the process of strengthening national unity. In addition, based on historical and modern sources, the study examines factors influencing the formation of civil society and proposes practical recommendations. The results of this research can contribute to improving educational and upbringing processes aimed at fostering patriotism, strengthening the role of social institutions, and ensuring the sustainable development of civil society.

Keywords: New Uzbekistan, patriotism, sense of homeland, individual, state, society, democratic processes, "State for the People," upbringing, civil society, economic, socio-political, legal, spiritual, interest, civil society institutions, referendum, justice, people, selflessness.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение понятия патриотизма в формировании гражданского общества. Чувство патриотизма тесно связано с такими факторами, как осознание человеком своей ответственности перед обществом, сохранение национальных ценностей и внесение вклада в социальный прогресс. В статье освещается роль патриотических идей в развитии гражданского общества, их влияние на духовное воспитание молодого поколения, а также значение в

процессе укрепления национального единства. Кроме того, на основе исторических и современных источников анализируются факторы, влияющие на формирование гражданского общества, и выдвигаются практические предложения. Результаты данного исследования могут способствовать совершенствованию образовательных и воспитательных процессов, направленных на формирование чувства патриотизма, усилению роли социальных институтов, а также обеспечению устойчивого развития гражданского общества.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, патриотизм, чувство Родины, человек, государство, общество, демократические процессы, «Государство — для человека», воспитание, гражданское общество, экономический, социально-политический, правовой, духовный, интерес, институты гражданского общества, референдум, справедливость, народ, самоотверженность.

Vatanparvarlik tuyg'usi va taraqqiyot, shuningdek, fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Vatanparvarlik tuyg'usi insonning o'z Vataniga, xalqiga, madaniy merosiga bo'lgan muhabbat va sadoqatini ifodalaydi. Bu tuyg'u yosh avlodda axloqiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishda, shuningdek, fuqarolik jamiyatining asoslarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Vatan - kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati, tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiatni, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui. Vatan ona kabi yagona, muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish vatanparvarlikda namoyon bo'ladi [1].

Chindan-da, ona zamindagi har bir yurak - Inson, har bir g'oya, har bir yangilik, hatto "mo'min binafshaning ko'z yoshigacha"- Vatandir. Shoir

Vatanni keng ma'noda ta'rif-tavsif etarkan, ona yurtdagi har bir narsa Vatan ekanini nazardan qochirmaydi:

Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy: "Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati shul kishining vatani deyilur» deb Vatanga ta'rif beradi" [2].

Vatan tuyg'usi - bu aziz vatanimizni peshona teri bilan obod va ma'mur etgan, lekin nomlari tarix saxifalarida yozilmagan oddiy kishilarimizning fidokorona va yaratuvchan mexnatini mudom yoddha tutishdir.

Vatanparvarlik tuyg'usi har bir insoning ichki tuyg'ulari va amalga oshirayotgan mas'uliyatli faoliyati bilan bog'liqdir. Vatanparvarlik Vatanga, o'zi tug'ilib o'sgan joyga muhabbat, xalqning tarixiy taqdiri bilan faxr-iftixon qilish bo'lib, baynalmilallik va umuminsoniy birodarlik tuyg'ulariga chambarchas bog'liqdir. Har bir inson vatanni sevishi bu azaliy qadriyatlarimiz timsolidir.

Mustaqillik tufayli davlat va jamiyat boshqaruving haqiqiy demokratik tabiatni to'g'risida aniq

tasavvur, fikr va mulohazalar paydo bo'lib, fuqarolar o'z erkinliklari, siyosiy huquqlarini bevosita yoki bilvosita amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu huquq O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning sub'ektiga aylanganligidan, fuqarolarning o'z taqdirini o'zi amalda belgilash shart-sharoitlarini ta'minlamoqda. Natijada, demokratiya xalq hukumatga emas, aksincha hukumat xalqqa xizmat qilishi kerakligi to'g'risidagi tamoyilga asoslana boshladi. Demokratiya sharoitida xalq davlatning irodasiga qarab emas, aksincha, ongli, faol fuqarosi sifatida ishtirok etadi.

Davlat va fuqaro o'rtasida shunday oqilona munosabat qaror topadiki, davlatning fuqaro ustidan hukmronligi, zo'ravonligi, "bo'ysundirish" kabi totalitar davlatga xos belgilari barham topadi. Davlatning demokratik kuchi ham uning fuqaroga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Shunda xalqning davlatga nisbatan sadoqati yuqori bo'ladi. Xalqni itoatkorlik asosida tutib turish va siyosat olib borish, oxir oqibatda faqat demokratik jarayonlarga hamda xalqning jamiyat boshqaruvi jarayonlaridan, faol mehnat ruhiyatidan so'ndiribgina qolmasdan, davlatni tobora zaif bir holatga tushib borishga sabab bo'ladi. Bunday davlat, siyosiy rejimning dunyo hamjamiyati oldida ham nufuzi yuqori bo'lmaydi.

Fuqarolarga erkinlik, demokratiyani real ta'minlab bermagan davlat tabiatan ma'rifiy bo'la olmaydi. Demokratik jamiyatda esa

fuqarolar o'z erkinligi va huquqlaridan to'la foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bular:

- avvalo, erkin mehnat faoliyatini tanlash va uni amalga oshirish;
- davlat hokimiyatidan va mustaqil bo'lgan turli institutlarda ishtirok etish;
- ijtimoiy hayot sohalarida erkin faoliyat ko'rsatish;
- jamiyat siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotida sodir bo'ladigan o'zgarishlardan xabardor bo'lish, turli fikr va qarashlarga o'z munosabatlarini bildirishda erkin bo'lish bilan birga, muayyan ma'suliyatini ham o'z zimmasiga olish orqali amalga oshib boradi.

Fuqarolik jamiyat tushunchasi-kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun, avvalo, u haqdagi g'oyalar genezisini, asoslarini bilish lozim. Fuqarolik jamiyat ma'lum asoslar, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy asoslar bilan shakllanishi mumkin.

Bular quyidagilardan iborat: iqtisodiy asos - shaxs va jamiyat manfaatlarining umumiyligiga asoslangan mulk shakllarining xilmalligi, iqtisodiy plyuralizm, ko'p ukladlilik, erkin bozor munosabatlari. Qaysiki jamiyatda uning har bir a'zosi, qandaydir mulkka ega bo'lishi, o'z xohishi bilan tasarruf etish, sarflash

huquqiga ega bo'lishi, xususiy multak daxlsizligi, davlat tomonidan kafolatlangan tadbirkorlik, mehnat va iste'mol faoliyati erkinligining ta'minlanganligi; ijtimoiy-siyosiy asos-mustaqlil davlatlarning tashkil topishi, iqtisodiy va siyosiy hokimiyatning ajratilishi. Insonlarning o'z maqsadlarini himoya qilish maqsadida ma'lum tashkilotlarga birlashishi, hokimiyatlar turli-tuman markazlar, tashkilotlar, siyosiy institutlar qo'lida jamlangan bo'lsa, ular bir-birini cheklaydi va muvozanatga solib turadi.

Yangi O'zbekistonda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko'lamli va shiddatli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-2024-yillarda fuqarolik jamiyatni institutlarini bevosita qo'llab-quvatlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan 64 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur huquqiy va institutsional baza yaratildi.

Bu borada Prezidentimiz, jumladan: "Fuqarolik jamiyatni institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish e'tiborimiz markazida bo'ladi" deb alohida e'tirof etdilar.

Yangi O'zbekiston va fuqarolik jamiyat: konstitutsiyaviy-huquqiy va tashkiliy asoslari Fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyatini takomillashtirish

maqsadida bir qator samarali aniq quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Birinchidan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida birinchi marotaba fuqarolik jamiyatni institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritilib, uning XIII bobi "Fuqarolik jamiyatni institutlari", deb nomlandi. Jumladan 69-moddada [3] "Fuqarolik jamiyatni institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi" deb mustahkamlab qo'yildi.

Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada milliy qonunchiligidizda birinchi marotaba fuqarolik jamiyatni institutlarining tarkibi ochib berildi. Ushbu institutlar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlandi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining boshqa boblarning 5 ta moddasida fuqarolik jamiyatni institutlarini manfaatlari himoya qilingan.

Ikkinchidan, O'zbekiston tarixida ilk marotaba 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi qabul qilindi. Konsepsiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlari etib:

- fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;
- fuqarolik jamiyatni institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat

tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;

- davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;

- fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash belgilandi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, OAVning rolini kuchaytirish, "Xalq-qonunlarning tom ma'noda yagona manbai va muallifi hisoblanadi" hamda "Barcha muhim qarorlar bevosa xalq bilan muloqot asosida, jamoatchilikning fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi" [4] tamoyillarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistonni buniyod etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi - "Inson qadri uchun" hamda "Davlat-inson uchun" tamoyillarining real hayotga tatbiq etishdan iboratligi hamda bu masalada qonunchilikka kiritilgan yangiliklar, o'zgartirish va qo'shimchalar demokratik jarayonlarning mustahkam huquqiy bazasini yaratdi.

Yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanayotgani, inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa qadri eng muhim qadriyat sifatida e'tirofi namunasi sifatida yangi davr talablariga mos ravishda 2023-yil 30-

aprelda o'tkazilgan Referendum natijasiga ko'ra, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan talablarga asosan, milliy qonunchiligidan va huquqiy asosga ko'ra "inson-jamiyat-davlat" tamoyilini mustahkamlanishi zarur.

Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida xalq bilan bevosita muloqotni yo'lga qo'yilishi, uning dard-u tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish borasida yaratilgan mutlaqo yangi demokratik tizim-Xalq qabulxonalarini o'z natijalarini bermoqda. Bundan tashqari, barcha davlat organlari faoliyatida xalq dardiga qulq tutish, muammolarni o'z o'rniда va joyida hal etish va xalqni rozi qilish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistonni kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatiga aylantirish maqsadida fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash vazifalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati va rolini oshirish davr talabiga aylandi.

Mamlakatimiz hayotining eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy masalalari yechimida mahalla institutining o'rni katta. Ayni paytda ushbu noyob tuzilma ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazorati izchil kuchaytirilishi, ko'plab boshqaruv

funksiyalarining aksariyati xalqning o'ziga, fuqarolik jamiyatni institutlariga berilishida faol ishtirok etmoqda. Shuningdek, mahallaning huquqiy maqomini va vakolatlarini konstitusiyaviy darajada mustahkamlanishi hamda tarixan tashkil topgan mazkur milliy demokratik institutning islohotlar jarayonida yanada faol ishtirok etish imkonini beradi.

2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 127-moddasida: Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisni saylaydi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan,

rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek, milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli.

Davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishda ko'maklashadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari saylovi tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish va vakolatlari qonun bilan belgilanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organini huquqiy maqomi Konstitusiyada o'z aksini topgan.

Shuningdek, O'zbekistonni kuchli va adolatli fuqarolik jamiyatiga aylantirishda hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarda Fuqarolik jamiyatni institutlari o'rni va rolini oshirish hamda huquqiy maqomini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – V harfi, Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent B-64.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: "O'qituvchi", 1992.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. "O'zbekiston" Toshkent. 2023. 83-bet.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent 2023. 59-bet